

Islom Karimov (1938-2016)



Islom Karimov (1938-2016)



Islom Abdugʻaniyevich Karimov 1938 yil 30 yanvarda Samarqand shahrida tugʻilgan. Oʻrta Osiyo politexnika instituti va Toshkent xalq xoʻjaligi institutini muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklari boʻyicha tugatgan.

Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor (1961-1966) boʻlib ishlagan. 1966 yilda Oʻzbekiston SSR Davlat plan komitetiga ishga oʻtib, mutaxassislikdan Respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi oʻrinbosari lavozimigacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtgan.

Islom Abdugʻaniyevich Karimov 1983 yilda Oʻzbekiston SSR Moliya ministri, 1986 yilda Oʻzbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining oʻrinbosari, Respublika Davlat plan komitetining raisi etib tayinlangan. 1986-1989 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi lavozimida ishlagan. 1989 yilning iyunidan Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi etib saylangan.

1990 yil 24 mart kuni Oʻzbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida Islom Abdugʻaniyevich Karimov Oʻzbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. 1991 yil 29 dekabrda muqobillik asosida oʻtkazilgan umumxalq saylovida Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti etib saylangan.

Islom Karimov 1991 yil 31 avgustda Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini eʼlon qildi. 1995 yil 26 martda umumxalq Referendumida Karimovning Prezidentlik vakolati 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirildi. 2000 yil 9 yanvarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi boʻlib oʻtdi. Ushbu saylovda Islom Abdugʻaniyevich Karimov yana Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

1994 yili Islom Karimovga Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi unvoni berilgan, shuning bilan, iqtisod, fan va taʼlimni rivojlantirishga qoʻshgan ulkan hissasi uchun oʻndan ortiq xorijiy mamlakatlar universiteti va akademiyalarining faxriy fan doktori, professori hamda akademligiga saylangan.

Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Qahramoni unvoni, «Mustaqillik» va Amir Temur ordenlari bilan taqdirlangan.

2023-09-25 22:36:40